

## VALYUTA, VALYUTA KURSI VA HISOBLASH

To'rayeva Malika

Rahimov Sanjar

Samarqand Davlat Arxitektura-Qurulish universiteti o'qituvchisi.

Baxriddinova Mehribon

Abdunabiyeva Sevinch

Samarqand Davlat Arxitektura-Qurulish universiteti I-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11910177>

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada valyuta kursining qanday ishlatalishi, valyuta o'zi nimaligi va nima uchun bizga kerakligi, davlatning iqtisodiyotida qanday foyda keltirishi, banklar valyuta kursi bilan qanday ishlashi va hozirgi kunda valyuta kursining narx-navosi qanchaga teng ekanligini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zları:** Valyuta kursi, valyuta kursini hisoblash, davlat pul birligi, Markaziy banklar, milliy, xorijiy va jamoaviy valyutalar, valyutaga bo'lgan talab va takliflar, kross-kursi.

## CURRENCY, EXCHANGE RATE AND CALCULATION

**Abstract.** In this article, we will consider how the exchange rate is used, what the currency is and why we need it, how it benefits the economy of the state, how banks work with the exchange rate, and how much the exchange rate is currently worth.

**Key words:** Exchange rate, exchange rate calculation, state monetary unit, Central banks, national, foreign and collective currencies, supply and demand for currency, cross rate.

## ВАЛЮТА, КУРС ОБМЕНА И РАСЧЕТ

**Аннотация.** В этой статье мы рассмотрим, как используется валютный курс, что такое валюта и зачем она нам нужна, какую пользу она приносит экономике государства, как банки работают с валютным курсом и сколько составляет валютный курс на данный момент стоит.

**Ключевые слова:** Валютный курс, расчет курса, государственная денежная единица, центральные банки, национальная, иностранная и коллективная валюты, спрос и предложение на валюту, кросс-курс.

Valyuta - davlatning pul birligi bo'lib pul tizimining asosiy elementi hisoblanadi. U muomiladagi qonunning to'lov vositasi bo'lib, tovarlarni qiymatining o'lchovi, hisoblash va to'lash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Har bir mamlakat o‘zining valyuta birligiga ega. Ayni paytda yer yuzida 250 dan ziyod davlat bor. Ulardan 195 tasi mustaqil mamlakatlar, qolganlari esa noaniq yoki maxsus maqomga ega.Dunyoda 160ga yaqin valyuta mavjud .

**Milliy valyuta** - muayyan davlatning valyutasidir (so‘m, dollar, yevro, rubl va boshqalar).

Mazkur davlat hududida foydalanish maqsadida Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqariladi. **Milliy valyutaning qadrsizlanishi**- xorijiy valyutalarni sotib olishga oldingiga nisbattan ko‘proq milliy valyuta birliklari zarurligini bildiradi, **milliy valyutaning qimmatlashishi**-xorijiy valyutalarni sotib olishga oldingiga nisbattan kamroq milliy valyuta birliklari zarur bo‘lishini anglatadi.

**Xorijiy valyuta**- xorijiy davlatlarda muomilada bo‘lgan va qonuniy to‘lov vositaslari (bankomatlar, g‘azna biletlari, tangalar, cheklar, veksellar).

**Jamoamiy valyuta**-bu malum bir davlatlar guruhi va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyaviy amaliyotlarni amalga oshirish uchun foydalanadigan valyutadir.

**VALYUTA KURSI** oddiy so‘z bilan aytganda bir mamlakat valyutasini boshqa bir mamlakat valyutasiga nisbati ifodalangan qiymatidir.

Biz valyutani ayirboshlash bilan shug‘ullanmaymiz ammo, valyuta kursi haqida ba’zi ma’lumotlarni bevosita bilib qolamiz. Masalan banklar tomonidan mijozlarga yuboradigan sms xabarlari yoki televideniyada uzatiladigan axborot orqali bilishimiz yoki ko‘zimiz tushadi.Valyuta kursi 1daqiqada ham 1oyda ham balki 1yilda bir o‘zgarish sodir bo‘lishi mumkin. Valyuta kursi chet elda tovarlarni sotish va sotib olish, jahon bozoridagi narxlarni solishtirish uchun ishlataladi.

Xalqaro to‘lovlar nafaqat alohida fuqarolar balki kompaniyalar va davlat tomonidan ham amalga oshiriladi.

**Keling o‘zimizga savol beraylik!**

**Valyuta kursi nimaga bog‘liq?**

Valyuta kursiga uning valyuta bozoridagi mashhurligi va miqdori, markaziy banklarining harakatlari va kutilmagan holatlar inqirozlar, ofatlar, urishlar ta’sir qiladi.

**Talab va taklif.** Valyuta ham doimiy ravishda sotib olinadigan va sotiladigan tovarlardir, shuning uchun u bozor qonunlariga bo‘ysunadi. Agar valyuta talab oshsa uning qiymati ham oshadi.Talabning o‘zgarishiga resurslarning narxi, davlatlararo sanksiyalar va mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sir ko‘rsatdi.

**Markaziy banklarining harakatlari.** Markaziy banklar milliy valyuta kursini quyidagilar orqali nazorat qilishi mumkin: chet el valyutalarini sotib olish va sotish, zahiralarini manipulatsiya qilish, davlat qimmatli qog‘ozlari bilan operatsiyalarini amalga oshirish, asosiy stavkani o‘zgarish.

Ayrim hollarda Markaziy bank valyuta kursi ustidan nazoratni yo‘qotishi mumkin.

Urishlar, inqiloblar va tabiiy ofatlar investitsiyalarning chiqib sekinlashgan olib kelishi mumkin. Bular valyuta kursini pasayishiga olib keladi. Valyuta kurslari birjalar, Markaziy bank va tijorat banklari tomonidan belgilanadi. **Markaziy bank.** Har kuni ish kunlarida markaziy bank rasmiy valyuta kursini belgilaydi va e'lon qiladi. Bu milliy iqtisodiyotdagи operatsiyalar va mamlakat byudjetini boshqarish uchun oriyentidir. Markaziy bank kursi aholiga sotish uchun belgilanmaydi. Banklar markaziy bank stavkasini o'zlarining kurslarini belgilash uchun minimal Stavka sifatida ishlataladi.

O'zbekiston Markaziy bank valyuta kursi uchun asos sifatida O'zbekiston Respublikasi valyuta birjası -UzRVBdagi operatsiyalar natijasidan foydalanadi. Markaziy bank chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibini belgilashda chet el valyutasiga bo'lган talab va taklif asosida valyuta kursini aniqlash uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2-may 2024-yildan boshlab buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarni yuritish, shuningdek, bojxona va boshqa majburiy to'lovlar uchun xorijiy valyutalarning so'mga nisbatan qiymatlar belgilangan. Valyuta qiymatini belgilash chog'ida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyutalarning belgilangan qiymati bo'yicha sotish yoki sotib olish majburiyatini olmagan.

## **VALYUTA KURSINI HISOBBLASH YOKI BILISH NEGA KERAK?**

### **Ho'sh biz nega ishlatalamiz?**

Masalan migrantlar yuboradigan pullarni uz milliy pulimizga almashtirish uchun yoki Turkiyaga bormoqchi bulsak milliy valyutamizni turk lirasiga almashtirish uchun kerak buladi qarangki, turk lirasi kamyoq valyuta bulganligi sababli bankdan sotib olishni imkon yuq. Shu sababli erkin almashtiriladigan AQSH dollariga almashtirish kerak.

Turkiyaga yetib olgach bankdan turk lirasiga almashtirish mumkin buladi. Buning uchun turk lirasini o'zbek so'miga nisbatini ya'ni kross- kurs bilishimiz lozim buladi.

**Kross-kurs** - ikki valyuta qiymatining o'zoro nisbati bulib, uchinchi valyutaga nisbatan kurslari orqali hisoblanadi.

**Valyuta kodi-** bu dunyodagi valyutalar uchun umumiy qabul qilingan belgi bo'lib, u 3ta harfdan iborat bo'ladi. Bu valyutalarni matnlar va electron tabloidlarda qisqa va aniq aks ettirishni osonlashtiradi.

### **Xorijiy valyutaning milliy valyutadagi narxi-Kotirovka.**

Bir valyuta birligining bosqasiga nisbatan kursi bevosita aniqlanmagan taqdirda talab va taklifga muvofiq birjada kross-kurs orqali aniqlanadi. Valyuta kodi-- bu dunyodagi valyutalar uchun umumiy qabul qilingan belgi bulib, u uchta harfdan iborat bo'ladi. Bu matn va elektron mantlarda qisqa va aniq aks ettirishni osonlashtiradi.

Turkiya lirasining dollarga nisbatan kursi 01.05.2024 yil holatiga ko'ra (1 USD=32.4819TRY)

1USD=12640.2172 UZS) Shuning uchun TRY/UZS ga nisbati quyidagicha buladi.

(12640.2172 USD/UZS) / (32.4819 USD/TRY)=389.146484657

**Valyuta kurslarining hozirgi 2024-yilgi va iyun oyidagi sotib olish va sotish narxnavolari quyidagichadir:**

VALYUTANING NOMI	SOTIB OLİSH	SOTISH
🇺🇸 1 AQSh dolları, USD	12570.00	12640.00
🇪🇺 1 Yevro, EUR	13400.00	13550.00
🇷🇺 1 Rossiya rubli, RUB	130.00	145.00
🇬🇧 1 Angliya funt sterlingi, GBP	15750.00	16550.00
🇨🇭 1 Shveytsariya franki, CHF	13750.00	14550.00
🇯🇵 1 Yaponiya iyenasi, JPY	70.00	90.00
🇰🇿 1 Qozog'iston tengesi, KZT	15.00	30.00

**Xulosa:** Valyuta-bu davlatning milliy pul birligi. Har bir shaxs o'z valyutasini bilishi, boshqa valyutalar ayrboshlashda kursni aniqlashi va banklardan sotib olishi yoki sotishi mumkin.

Darhaqiqat, hech qachon ishonchsiz ya'ni, ko'chalarda yoki do'konlarda valyutani ayrboshlamang va valyutani haqiqiyligini va unga zarar yetkazilmaganiga e'tibor bering. Hech

qaysi jinoyat javobsiz qolmaganidek, buni ham o'z jazosi va javobgarliklari bor. Valyuta kursi tez-tez o'zgarib turadigan yoki ma'lum bir muddatda o'zgaradi. Har bir davlat o'z valyutasidan o'zini hududi ichida foydalanadi.

**Eslatma:** Qaysi mamlakatga bormoqchi bo'lsangiz o'sha davlat valyutasini sotib olishni yoki erkin almashadigan valyutaga almashtirishingizni maslahat beraman. Yana valyuta har bir valyuta bilan qiymatlari belgilanmagan bo'lishi mumkin, bunday holda 3-valyuta orqali aniqlaymiz.

## REFERENCES

1. Moliya asoslari: moliya va investitsiyalar N.G'.Karimov, A.S. Axmedov 2021-yil
2. Makroiqtisodiyot A.E.Ishmuhamedov, Z.A.Djumayev, Q.X.Jumayev 2005-yil  
Internet sayitlar:
  3. <https://finlit.uz/>
  4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Valyuta - cite\\_ref-1](https://uz.wikipedia.org/wiki/Valyuta - cite_ref-1)